

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA NUTQ O`STIRISH MASHG`ULOTLARIDA INTERFAOL USULLARNI QO`LLASH

*Xushboqova Nodira Botirovna*

*Angor pedagogika kolleji uslubchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nutq o`stirish mashg`ulotlarini tashkil etish, mashg`ulotlarda interfaol usullarni qo`llashda faol o`qitish usullaridan, o`yinli texnologiyalardan keng va samarali foydalangan holda amalga oshirilsa, bolalarda faol va mantiqiy fikrlash qobiliyati, diqqati, mantiqiy xotirasi, aqliy qobiliyati rivojlanadi.

**Kalit so`zlar:** maktabgacha ta'lim tashkiloti, nutq o`stirish, mashg`ulot, innovatsiya, texnologiya, interfaol usullar

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o`quv jarayoniga qo`llashga bo`lgan qiziqish, e'tibor kundan - kunga kuchayib bormoqda, buning sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda ta'lim oluvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o`rgatilgan bo`lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o`zlari qidirib topishlariga, mustaqil o`rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o`zlari keltirib chiqarishlariga o`rgatadi. Tarbiyachi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan ta'lim jarayonida shaxs asosiy figuraga aylanadi.

Shuning uchun barkamol avlodni voyaga etkazishda zamonaviy o`qitish metodlari - interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarning o`rni va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratga oid bilim, tajriba va interfaol metodlar barkamol avlodni bilimli, etuk malakaga ega bo`lishlarini ta'minlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun nutq o`stirish mashg`ulotlari innovatsion texnologiyalardan, faol o`qitish usullaridan, o`yinli texnologiyalardan keng va samarali foydalangan holda amalga oshirilsa, bolalarda faol va mantiqiy fikrlash qobiliyati, diqqati, mantiqiy xotirasi, aqliy qobiliyati rivojlanadi.

Tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolani faollashtiradigan, o`zi va tarbiyalanuvchi uchun qulay bo`lgan yo`llarni, usul va uslublarni, o`qitish shakllari, metod va vositalarni izlaydi, ularni takomillashtiradi, Shu boisdan ham «pedagogik texnologiya», «o`qitish texnologiyasi», «ta'lim texnologiyasi» atamaları qatoridan «innovatsion texnologiyalar», «pedagogik innovatsiyalar» atamasi mustahkam o`rin olmoqda.

«**Innovatsiya**» inglizcha «innovation» so`zidan kelib chiqqan bo`lib, uning tarjiması «yangilikni kiritaman, tadbıq etaman, o`zgartiraman» degan ma'nolarnı bildiradi. Demak an'anaviy ta'limdagi kabi bir xil shablonlar asosida emas, balki yangilik asosida ta'lim jarayonining ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan ish shaklidan foydalanish innovatsiya demakdir.

«**Texnologiya**» – yunoncha «techne» so`zidan olingan bo`lib, mahorat, san'at, «logos» - so`z, ta'limot ma'nolarini anglatadi.

Bugun ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni quyidagicha tasniflash mumkin: faoliyat yo'nalishiga ko'ra (pedagogik jarayondagi, boshqaruvdagi), kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra lokal, modulli, tizimli, kelib chiqish manbaiga ko'ra (shu jamoa uchun ichki yoki tashqaridan olingan). Innovatsiyalar odatda bir necha muammo kesishgan paytda vujudga keladi va umuman yangi masalalarni hal qiladi, pedagogik jarayonning uzluksiz yangilanib borishga olib keladi.

So'nggi yillarda ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalar keng qo'llanila boshlandi. Bu esa maktabgacha ta'lim tarbiyachisining tayyorgarligini ilg'or ta'lim texnologiyalari asosida amalga oshirish zarurligini ko'rsatmoqda. O'quv faoliyatini rejalashtirish, uni tashkil etish tarbiyachilar uchun nihoyatda zarur. Shuning uchun ham Kadrlar tayyorlash milliy dasturida respublika ta'lim tizimini texnologiyalashtirish zarurligi ta'kidlandi. O'quv–tarbiya jarayoni pedagogik texnologiyalar bilan to'liq ta'minlanishi zaruriyat darajasida qayd etildi. Ta'limda pedagogik texnologiyalarga asoslanish va innovatsiyaga intilish, maktabgacha yoshdagi bolalarni faollashtirishga qaratilgan turli interfaol metodlardan foydalanish ta'lim maqsadini samarali amalga oshirishga yordam beradi.

Ta'lim jarayonida innovatsion metodlardan foydalanib tashkil etish uchun avvalo mashg'ulot rejasi va uni o'tkazish xaritasini aniq ishlab chiqish zarur. Bunda o'qitish metodlarini to'g'ri tanlash nihoyatda muhim sanaladi. Metod tanlashda ko'proq interfaol metodlarga e'tiborni ko'proq qaratish o'quv faoliyati samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Innovatsion texnologiyalarni mashg'ulot jarayonida qo'llashda muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni tarbiyalanuvchilarga etkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, tarbiyalanuvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan tushuncha, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash tarbiyachidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Maqsadni amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish, ham tarbiyachi, ham bolaning hamkorlikdagi faoliyati hamda ular qo'ygan maqsad, tanlagan mazmun, metod, shakl, vositaga, ya'ni texnologiyaga bog'liq. Tarbiyachi va bolaning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan. Bunda bolalarning bilim saviyasi, guruh характери, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan natijaga erishish uchun balkim, kompyuter bilan ishlash lozimdir, balkim film, tarqatma material, chizma va plakatlarni, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo'lar. Bular barchasi tarbiyachining mahorati va bolaning faolligiga bog'liq.

Bundan tashqari o'qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda tarbiyachi mashg'ulot mavzusining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitini, o'quv vositalarini eng asosiysi, bolaning imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olish kerak, shundagina,

kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, bolani ta'limning markaziga olib chiqish kerak.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, faol o'qitish usullarni qo'llab mashg'ulot o'tilganda guruhda o'zlashtirmaydigan bola qolmaydi. Deyarli barcha bolalar mashg'ulot jarayoniga jalb etilib, ularning mashg'ulotga qiziqishlari ortadi. Bolalarning kelgusida mustaqil bilim olishlariga, hunar o'rganishlariga imkon yaratiladi.

### References

1. Toshpulatov F. U., Norqochqorov R. E. O., Maxmudova X. N. Q. Xalq amaliy san'atining chizmachilik fani bilan bog'liqligi //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 138-142.
2. Бахтиер М., Илхомджон М. ГРАФИЧЕСКИЕ ПРОГРАММЫ, ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ, А ТАКЖЕ ВОЗМОЖНОСТИ ГРАФИЧЕСКИХ ПРОГРАММ AUTOCAD И 3D MAX //Universum: технические науки. – 2021. – №. 11-5 (92). – С. 92-94.
3. Маматкулов И. Ч., Омонова Р. Р. CHIZMACHILIK DARSLARIDA REZBALARNI CHIZMADA TASVIRLASH VA BELGILASHGA OID METODIK TAVSIYALAR: DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.31.50.049> Mamatqulov Ixomjon Chorshanbiyevich TerDU, Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrasida o'qituvchisi, Omonova Rayhon Rahmatillayevna TerDU, Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrasida o'qituvchisi //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2021. – №. 1-Махсус сон. – С. 170-176.
4. Chorshanbiyevich M. I. Methods of Organization and Teaching of Drawing Classes in Educational Institutions //International Journal of Development and Public Policy. – 2022. – Т. 2. – №. 5. – С. 140-143.
5. Toshpo'latov F. U. et al. Bolalarni o'yin texnologiyalari asosida kasb-hunarga qiziqishlarini shakllantirishda rivojlantiruvchi o'yinlar //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 487-491.
6. Chorshanbiyevich M. I. Individual Description of Separate Geometric Shapes and Bodies //International Journal of Development and Public Policy. – 2022. – Т. 2. – №. 5. – С. 167-169.
7. Uralovich T. F. Conducting classes on fine arts based on information and communication technologies //International Engineering Journal For Research & Development. – 2021. – Т. 6. – С. 3-3.
8. Тошпулатов Ф. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ГЕОМЕТРИЧЕСКИХ УЗОРОВ И ИХ ВИДОВ ИЗ ИСКЛЮЧЕНИЯ РИСУНКА И ПРИКЛАДНОГО ИСКУССТВА В АРХИТЕКТУРНЫХ СООРУЖЕНИЯХ //Физико-технологического образование. - 2022. - Ч. 1. - № 1.
9. Baratovna T. R. Developing Dialogic Speech of Pre-School Children on the Basis of a Variative Approach //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 10. – С. 272-275.

10. Toshpulatov F. U., Norkochkarov R. E. O., Mahmudova H. N. Q. THE RELATIONSHIP OF FOLK APPLIED ARTS WITH THE SCIENCE OF DRAWING //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 2.
11. Tashimov N. E., Toshpulatov F. U. Activating Students in Building Intersection Line by Quadratic Transformations Method //www. auris-verlag. de.–2018. – 2018.
12. qizi Maktabgacha T. R. B. yoshdagi bolalarning badiiy estetik madaniyatini o'yinlar orqali shakllantirish EURASIAN JOURNAL OF LAW //FINANCE AND APPLIED SCIENCES <https://doi.org/10.5281/zenodo>. – Т. 6341593.
13. Toshpulatov F. U., Turopova R. B. Games that develop children's interest in the profession based on game technology //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 487-491.
14. Toshpulatov F. QADIMIY GRIX VA O 'SIMLIKSIMON (ISLIMIY) NAQSH ELEMENTLARINING GEOMETRIK TAHLILI //Физико-технологического образование. – 2022. – №. 4.
15. Toshpulatov F. U., Norqochqorov R. E. O., Maxmudova X. N. Q. Xalq amaliy san'atining chizmachilik fani bilan bog'liqligi //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 138-142.
16. Toshpulatov F. U. GEOMETRICAL ANALYSIS OF THE ELEMENTS OF ANCIENT GREEK AND PLANT-LIKE (ISLAMIC) MOTIFS //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 8. – С. 461-468.
17. Toshpulatov F. U., Mominov B. K., Mamatkulov I. C. Determination of Sections of General Surfaces of the Second Order on Predetermined Circles //The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research. – 2020. – Т. 2. – №. 11. – С. 21-26.